

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ФАНЛАР
АКАДЕМИЯСИ МИНТАҚАВИЙ БЎЛИМИ
ХОРАЗМ МАЪМУН АКАДЕМИЯСИ**

ХОРАЗМ МАЪМУН АКАДЕМИЯСИ АХБОРОТНОМАСИ

Ахборотнома ОАК Раёсатининг 2016-йил 29-декабрдаги 223/4-сон қарори билан биология, қишлоқ хўжалиги, тарих, иқтисодиёт, филология ва архитектура фанлари бўйича докторлик диссертациялари асосий илмий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган

**2024-1/3
Вестник Хорезмской академии Маъмуна
Издается с 2006 года**

Хива-2024

Бош муҳаррир:

Абдуллаев Икрам Искандарович, б.ф.д., проф.

Бош муҳаррир ўринбосари:

Ҳасанов Шодлик Бекпўлатович, к.ф.н., к.и.х.

Таҳрир хайати:

Абдуллаев Икрам Искандарович, б.ф.д., проф.
 Абдуллаева Муборак Махмудовна, б.ф.д., проф.
 Абдуҳалимов Баҳром Абдурахимович, т.ф.д., проф.
 Агзамова Гулчехра Азизовна, т.ф.д., проф.
 Аимбетов Нағмет Қаллиев, и.ф.д., акад.
 Аметов Яқуб Идрисович, д.б.н., проф.
 Бабаджанов Хушнуд, ф.ф.н., проф.
 Бобожанова Сайёра Хушнудовна, б.ф.н., доц.
 Бекчанов Даврон Жуманазарович, к.ф.д.
 Буриев Хасан Чутбаевич, б.ф.д., проф.
 Ганджаева Лола Атаназаровна, б.ф.д., к.и.х.
 Давлетов Санжар Ражабович, тар.ф.д.
 Дурдиева Гавҳар Салаевна, арх.ф.д.
 Ибрагимов Бахтиёр Тўлаганович, к.ф.д., акад.
 Исмаилов Исҳақжон Отабаевич, ф.ф.н., доц.
 Жуманиёзов Зоҳид Отабаевич, ф.ф.н., доц.
 Жуманов Мурат Арепбаевич, д.б.н., проф.
 Кадирова Шахноза Абдухалиловна, к.ф.д., проф.
 Қаландаров Назимжон Назирович, б.ф.ф.д., к.и.х.
 Каримов Улғабек Темирбаевич, DSc
 Курбанбаев Илҳом Жуманазарович, б.ф.д., проф.
 Курбанова Саида Бекчановна, ф.ф.н., доц.
 Қутлиев Учқун Отабаевич, ф-м.ф.д.
 Ламерс Жон, қ/х.ф.д., проф.
 Майкл С. Энжел, б.ф.д., проф.
 Махмудов Рауфжон Баходирович, ф.ф.д., к.и.х.
 Мирзаев Сирожиддин Зайниевич, ф-м.ф.д., проф.
 Мирзаева Гулнара Саидарифовна, б.ф.д.
 Пазиллов Абдуваеит, б.ф.д., проф.

Раззақова Сурайё Раззоқовна, к.ф.ф.д., доц.
 Раматов Бакмат Зарипович, қ/х.ф.н., доц.
 Рахимов Раҳим Атажанович, т.ф.д., проф.
 Рахимов Матназар Шомуратович, б.ф.д., проф.
 Рахимова Гўзал Юлдашовна, ф.ф.ф.д., доц.
 Рўзметов Бахтияр, и.ф.д., проф.
 Рўзметов Дилишод Рўзимбоевич, г.ф.н., к.и.х.
 Садуллаев Азимбой, ф-м.ф.д., акад.
 Салаев Санъатбек Комилов, и.ф.д., проф.
 Сапарбаева Гуландам Машиариповна, ф.ф.ф.д.
 Сапаров Қаландар Абдуллаевич, б.ф.д., проф.
 Сафаров Алишер Каримджанович, б.ф.д., доц.
 Сирожов Ойбек Очилов, с.ф.д., проф.
 Собитов Ўлмасбой Тожаҳмедович, б.ф.ф.д., к.и.х.
 Сотипов Гойипназар, қ/х.ф.д., проф.
 Тожибаев Қомилжон Шаробитдинов, б.ф.д., акад.
 Холлиев Аскар Эргашевич, б.ф.д., проф.
 Холматов Бахтиёр Рустамович, б.ф.д.
 Чўпонов Отаназар Отожонович, ф.ф.д., доц.
 Шакарбоев Эркин Бердикулович, б.ф.д., проф.
 Эрматова Жамила Исмаиловна, ф.ф.н., доц.
 Эшчанов Рузумбой Абдуллаевич, б.ф.д., проф.
 Ўразбоев Ғайрат Ўразалиевич, ф-м.ф.д.
 Ўрозбоев Абдулла Дурдиевич, ф.ф.д.
 Ҳажиева Мақсуда Султоновна, фал.ф.д.
 Ҳасанов Шодлик Бекпўлатович, к.ф.н., к.и.х.
 Худайберганаева Дурдона Сидиқовна, ф.ф.д.
 Худойберганаев Ойбек Икромович, PhD, к.и.х.

Хоразм Маъмун академияси ахборотномаси: илмий журнал.-№1/3 (110), Хоразм Маъмун академияси, 2024 й. – 159 б. – Босма нашрнинг электрон варианты - <http://mamun.uz/uz/page/56>

ISSN 2091-573 X

Муассис: Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси минтақавий бўлими – Хоразм Маъмун академияси

МУНДАРИЖА ТАРИХ ФАНЛАРИ

Boltayeva M.J. Sovet ittifoqi davrida o'zbek kinosi tarixidan	5
Matrasulov L.Sh., Boltayev I.X. Xiva xonligida davlat boshqaruvi va ijtimoiy hayot	7
Mubinov M.A. The study of the history of the Bukhara Emirate by european authors	10
Saidjanova Z.K. So'fi ta'rixlarining g'oyaviy-badiiy xususiyatlari	13
Tillayev D.O. 1920-1924 yillarda Xorazm Xalq Sovet Respublikasi maorif tizimi	16
Turayev A.S. AQSHda neokonservativizm shakllanishi tarixi	19
Xalilov B.Sh. Jadidlarning ma'rifatparvarlik g'oyalarida erkin inson konsepsiyasi	21
Zaripboyeva U. Ibn Xavqalning "Kitob surat al-ard" asari va undagi o'lchov birliklari	24
Аллабергенов Н.М. Ўрта Осиёнинг илк ўрта асрлар тангалари ва улар талкинига доир мулоҳазалар	27
Наврузов С. Хонка ҳокими Аминбой Ҳожи Муҳаммад ўғлининг Ҳиндистонга элчилик сафари	31
Нуруллаева Ш.К. Музей фондлари ва экспонатлари – миллий кийим ва тақинчоқлар тарихини ўрганишда асосий манба сифатида	39
Розимова Ё.Ю. Орзу ва мақсад яқдиллиги – профессионал армия асоси	43
Сапарбаев Б.Х. Муҳаммад Раҳимхон I (1806-1825) даврида Хива хонлигида ирригация ва хунармандчилик соҳаларининг ривожланиши	45
Салаев У.К. Хоразм воҳаси Плейстоцен ва Голоцен даврида: Палеогеография ва палеоэкология масалаларига доир баъзи бир қизғилар	48
Салаев У.К. Қуйи Амударё ҳудуди тош асри палеогеографияси шароитида этник муносабатлар тарихига оид баъзи бир мулоҳазалар	51
Узоков Б. Қадриятлар – фалсафанинг долзарб мавзуси сифатида	54
Усманов М.Ш. Философия новой редакции Конституции Узбекистана	56
Худойкулов И.Б. Қашқадарёда совет даври судларининг ташкил этилишининг тарихий натижалари	60
Чарыева Д.А. Исторические корни изучения туркменских народных диалектов	62
ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ	
Abulkhairov D.F. Prospects for teaching foreign languages based on european competencies	65
Akindikov N.B. G'arbiy Yevropa adabiyoti namunalarini o'zbek maktablarida o'qitilishining ba'zi masalalari	69
Aripova O.T. Distinctive features of the formation of oral speech of students by teaching the turkish language	72
Atakav I.R. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida tarbiya fani o'qitishni hozirgi kundagi mavjud holati	75
Baxitjanova E.M. The importance of multimedia educational tools in learning a foreign language	78
Dusmurodova I.Q. Methodology of the formation of oral speech and worldview of students	81
Eshchanov R.A. Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimini baholash va kredit modul tizimini tatbiq qilish muammolari	83
Isakulova B. The role of educational management in teaching english	88
Istamova D.S. Talabalarda kompetensiyalarni rivojlantirish metodikasini takomillashtirish	91
Hamdamova Ch.H. Xitoy tilida yozish ko'nikmasini tasvir va voqealashtirish usullaridan foydalanib qisqa bayonlashtirish	94
Kosimova S.S. Methodological achievements of a modern teacher in teaching a foreign language	96
Mirbabayeva S.S. Using of innovative technologies in learning english lessons for primary students	99
Muxamatjonova D.R. Benefits of translation theories to improve reading skill	101
Norova B.Yu. The use of modern technologies in the education system is a requirement of the time	103
Nurmamatova F.I. The role of reading articles in improving speaking skills	106

To successfully solve the learning tasks, I practice the thematic organization of oral speech training, which consists in consistently working out topics and subtopics in situations and consists of the following steps:

- Oral preparation for the topic, that is, mastering vocabulary in speech;
- Oral introduction of the topic in situations;
- Working out the topic based on textbook samples on texts and assignments to them;
- Shifting the topic to the student's personality and life experience;
- Working out the topic in new situations;
- A combination of the topic with the ones passed earlier.

Thus, we see that the main exercises for the development of functional literacy are various types of work with text. When working with texts, I use techniques and methods of interactive reading, through which students achieve a complete understanding of the text, activate their past knowledge, connect it with new information obtained during reading, interact with the text, interpret it, listen to each other, evaluate their thoughts and feelings about what they read.

Thus, in the process of developing oral speech skills, working with text plays an important and primary role. To accomplish this task, there are a number of speech exercises aimed at forming both prepared and unprepared speech. Traditionally, the most common forms of working with text are question-and-answer exercises and retelling. However, the use of these forms should be carried out taking into account the communicative orientation of the learning process.

Reading is an important means of mastering the lexical and grammatical aspects of the English language, which contributes to a more solid mastery of lexical and grammatical knowledge. Currently, the problem of learning to read from reading to yourself to reading aloud is being solved. Studies have shown that the speed of reading and comprehension when reading to themselves in students graduating from elementary grades slightly exceeded the results when reading aloud (20-40 words), and in children who read aloud quickly, it reached 200-250 words per minute.

Mastering the basics of silent reading techniques should occur in parallel with learning to read aloud. At the same time, the ratio of these forms should gradually change in favor of the first (silently). At the stage of literacy, the leading place belongs to reading aloud, with which reading in silence should alternate (70 and 30%). In the subsequent stages of learning, the proportion of reading to oneself will increase. (In the middle tier, its share should be 90-95%).

In the process of forming oral speech skills at the middle and senior stages of learning, the ability of some texts to create an undeveloped situation, on the basis of which speech communication takes place in the lesson, can be widely used. Such forms of work stimulate the imagination and creativity of students.

REFERENCES:

1. Iroda D. Choice of Forming Technologies Professional Competencies of Students //International journal of inclusive and sustainable education. – 2022. – T. 1. – №. 6. – С. 181-184.
2. Myazina, T. A. The development of oral speech of students in literature lessons // Young scientist. — 2017. — № 19 (153). — Pp. 310-313.
3. Дусмуродова И. Main problems of translating metaphors //Переводоведение: проблемы, решения и перспективы. – 2022. – №. 1. – С. 274-278.

UO'K 378.4+336.77

OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA TALABALAR BILIMINI BAHOLASH VA KREDIT MODUL TIZIMINI TATBIQ QILSH MUAMMOLARI

R.A.Eshchanov, professor, Chirchiq davlat pedagogika universiteti, Chirchiq
ruzimboy@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada kredit-modul tizimi asosida o'qitish, bugungi kunda oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayoni, mustaqil ta'lim jarayoni, talabalar bilimini baholash va mustaqil ta'limni baholash, oliy ta'lim muassasalarida kredit-modul tizimdan foydalanishning ayrim nomutanosibliklar haqida fikrlar yuritiladi. Shuningdek, O'zbekistonda kredit-modul tizimi orqali talabalarning mustaqil ishlashini ta'minlash, kasbiy rivojlanishi, ta'lim jarayoniga baholash

usullarini tadbiq qilishning masalalari muhokama qilingan. Bundan tashqari oliy ta'lim muassasalarining ishchi o'quv dasturlari (sillabuslari) asosida talabalarni bilimini baholash mezonlari Yevropa mamlakatlarining kredit-modul tizimiga (ECTS) moslab baholash xususida takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: Kredit-modul tizimi, baholash, ta'lim jarayoni, mustaqil ta'lim jarayoni, mustaqil ta'limni baholash, reyting, ijodiy ishlash, dastur, darslik, o'quv qo'llanma, oliy ta'lim, oraliq baho, yakuniy baho, mustaqil o'quv ishi, mustaqil ta'lim, qoniqarli (3), yaxshi (4), a'lo (5) baholar.

Аннотация. В данной статье обучение по кредитно-модульной системе, образовательный процесс в высших учебных заведениях сегодня, самостоятельный процесс обучения, оценка знаний студентов и оценка самостоятельного обучения, некоторые дисбалансы в использовании кредитно-модульной системы. Также были обсуждены вопросы обеспечения самостоятельной работы студентов, повышения квалификации, применения методов оценивания в образовательном процессе через кредитно-модульную систему в Узбекистане.

Кроме того, были внесены предложения по адаптации критериев оценки знаний студентов на основе рабочих учебных программ (силлабусах) высших учебных заведений к кредитно-модульной системе (ECTS) европейских стран.

Ключевые слова: Кредитно-модульная система, оценка, учебный процесс, самостоятельная работа, рейтинг, творческая работа, программа, учебник, учебное пособие, высшее образование, промежуточная оценка, итоговая оценка, удовлетворительно (3), хорошо (4), отлично (5) оценки.

Abstract. In this article, teaching based on the credit-module system, the educational process in higher education institutions today, the independent learning process, the assessment of student knowledge and the assessment of independent education, some imbalances in the use of the credit-module system in higher education institutions are discussed. thoughts are held. Also, issues of ensuring independent work of students, professional development, application of evaluation methods to the educational process through the credit-module system in Uzbekistan were discussed.

In addition, proposals were made to adapt the criteria for evaluating students' knowledge based on the curricula (syllabus) of higher education institutions to the credit-module system (ECTS) of European countries.

Key words: Credit-module system, evaluation, educational process, independent educational process, independent education, evaluation, rating, creative work, program, textbook, study guide, higher education, intermediate evaluation, final evaluation, satisfactory (3), good (4), excellent (5) grades.

Ta'lim tizimida ta'lim-tarbiya jarayoni va ilmiy-tadqiqotlarning samaradorligini, ilg'or pedagog va ilmiy kadrlarni tayyorlash, ularning jahon mehnat bozori talablariga muvofiq raqobatdoshligini ta'minlash, mustaqil va ijodiy fikrlaydigan mutaxassislarni yetishtirish o'quv dargohlarida olib borilayotgan ta'lim-tarbiya jarayoni qanday tizim asosida yo'lga qo'yilganligi bilan chambarchas bog'liq.

Yurtimizda 2019-yilning 8-oktyabrida "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Prezident farmoni imzolandi [1]. Jahondagi ilg'or mamlakatlar tajribalariga tayangan holda 2030-yilga qadar Respublikamizdagi barcha oliy ta'lim muassasasining 85 foizi, jumladan, 2020-2021 o'quv yilining o'zida 33 ta oliy ta'lim muassasalarini kredit-modul tizimiga o'tkazish ko'rsatib o'tildi. Hozirda barcha oliy ta'lim muassasalari mazkur tizimga o'tib bo'ldi.

Sobiq ittifoq davridagi diplom ilovalarida faqatgina fan va baho to'g'risidagi ma'mumot mavjud edi, biroq fanning necha soat o'qitilgani, fanning reytingi yo'q edi. Masalan, mantiq fanidan 20 soat o'qigan talaba shu fandan 5 bahoga baholangan, 348 soatli mutaxassislik fandan 5 bahoga baholangan. Endi bu yerda kam soatli fandan 5 bahoga o'qigan talaba shu fandan mutaxassis bo'lishi mumkinmi yoki yo'qmi, degan savol tug'ilishi tabiiy. Mazkur kam soatli fan faqatgina talabaning mantiqiy fikrlashini rivojlantirish uchun o'qitilgan va baholangan xolos. Masalan, bakalavr darajasida

kimyo mutaxassisligida o'qiydigan talabalar uchun falsafa hamda shu turkumdagi fanlar tabiiy-ilmiy va gumanitar fanlar qatorida keltirilgan, bu esa talabaning kasbiy faoliyatini belgilamaydi. Shu kabi muammolar tug'ilmasligi uchun kredit-modul tizimiga o'tgan OTMlarida quyidagi asosiy maqsadlarni amalga oshirish zarurati bor:

1. hujjatlarning ekvivalentligini ta'minlash;
2. talabaning mobiligi;
3. fanlarning reytingini aniqlash;
4. ta'lim oluvchilarning reytingini aniqlash;
5. talim muassasasining reytingni aniqlash;
6. talabalarni ijodiy ishlashga o'rgatish;

7. ish beruvchiga bitiruvchining malaka ko'nikmasi to'g'risida malumot olish imkoniyatini beradi va yuqoridagi malumotlar OTM, bitiruvchi, ish beruvchilar uchun klaster malumotlar bazasi bo'lib xizmat qiladi.

Ma'lumki, modul bir nechta fan va fan bo'limlari o'rganiladigan o'quv rejasining bir qismi bo'lib, u talabalarda ma'lum bir bilim va ko'nikma hosil qilish, tahliliy-mantiqiy mushohada yuritish salohiyatiga ega bo'lishiga qaratilgan kurslar majmui hisoblanadi. Bunda o'qituvchi o'quv jarayonini tashkil qiladi, jonli, video hamda audio ma'ruzalar o'qiydi, talabaning faoliyatini muvofiqlashtiradi va nazorat qiladi. Talaba esa fan moduli mavzularini (60 foiz) mustaqil o'rganadi hamda berilgan topshiriqlarni bajarib boradi.

Jahonda kredit modul tizimini amaliyotga tadbqiq etish bo'yicha to'rtta model keng tarqalgan. Bular Amerika Qo'shma Shtatlarining kredit tizimi (USCS); Yevropa mamlakatlarining kredit tizimi (ECTS); Osiyo - Tinch okeani mamlakatlarining kredit tizimi (UCTS); Buyuk Britaniyaning kredit tizimi (CATS). Ushbu modellardan amaliyotga keng tadbqiq qilinayotgani AQSh va Yevropa modellari, shuning uchun O'zbekiston OTMlarida Yevropaning ECTS tizimidan foydalanishi maqullangan [1, 2].

Axborotlar olamidan to'la bahramand bo'lishning tezlashganligi, xalqaro ilmiy-texnik ma'lumotlar bazalaridan foydalanish imkoniyatlarining kengayganligi, globallashtirish jarayonlari jadallashtirish bo'is talabalarning mustaqil ta'limini rivojlantirish masalasi kun tartibiga ko'tarildi.

An'anaviy o'qitish tizimining salbiy jihatlardan voz kechish va xalqaro standartlar talablari doirasida ishlarni tashkil etish bo'yicha dastlabki qadamlar qo'yilmoqda.

Oliy ta'lim muassasalarida amalga oshirilayotgan ishlar, albatta, diqqatga sazovor, kredit-modul tizimi talabalarning mustaqil ishlashini ta'minlash orqali kasbiy rivojlanishi va kamolotini ta'minlashga yo'naltirilgan ekan, jarayonni, avvalombor, ta'lim jarayoni va ularni baholash usullarini aniq tushunishdan boshlash kerak. Masalan, hujjatlarning ekvivalentligini ta'minlash uchun fanning zamonaviy qat'iy dasturi va shu asosida yozilgan darslik, o'quv qo'llanmalar mavjud bo'lishini taqozo etadi.

Bizga ma'lumki, har bir talabaning ta'lim - tarbiya jarayonidagi faoliyati o'ziga xos bo'lib, biri ikkinchisini takrorlamaydi. Mustaqil ta'lim deganda, odatda, maxsus ajratilgan vaqt ichida qo'yilgan didaktik maqsadni bajarish uchun o'qituvchi tomonidan tashkil etilgan, talabalarning yangi bilimlarni izlash, ularni tushunish, mustahkamlash, ko'nikma va malakalarni shakllantirish va rivojlantirish, bilimlarni umumlashtirish va tizimlashtirish kabi har qanday aktiv faoliyatlari tushuniladi. **Bu jarayon talabalar uchun ESTC talablariga javob beradigan darslik asosida olib boriladi va bunday darsliklarni yozishni talabalariga javob bera oladigan yuqori malakali professor-o'qituvchilarga yuklatilishi maqsadga muvofiq.** Vaholanki, bugungi kunda ko'plab fanlardan dasturlarning kredit-modul tizimi talablariga mos uquv qo'llanmalari yo'q va an'anaviy darsliklar yozilmoqda. Bu esa ta'lim jarayoni va uni baholashni to'g'ri tashkil etishga asosiy to'siq hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2018-yil 9-avgustdagi 19-2018-son buyrug'i ilovasida keltirilgan OTMlarda talabalar bilimni nazorat qilish va baholash tizimi to'g'risidagi nizom [2]ning quyidagi bandlariga muvofiq:

"10. Talabaning amaliy, seminar, laboratoriya mashg'ulotlari va mustaqil ta'lim topshiriqlarini bajarishi, shuningdek, uning ushbu mashg'ulotlardagi faolligi fan o'qituvchisi

tomonidan baholab boriladi. Baholash mazkur Nizomning 15-bandida nazarda tutilgan mezonlar asosida amalga oshiriladi.

Talabani oraliq nazorat turi bo'yicha baholashda, uning o'quv mashg'ulotlari davomida olgan baholari inobatga olinadi. **Bu band semester davomida amaliy, seminar, laboratoriya mashg'ulotlari bo'yicha talabani baholab, o'rtacha arifmetik qiymati yaxlitlanib, oraliq nazorat bahosi chiqariladi. Aslida kredit-modul fanning har bir mashg'ulot turi bo'yicha soatlariga mos ravishda kredit ko'rsatkichlari aniqlanib, baholash asosida talabani fan mashg'ulotidan yiqqan krediti hisoblab topiladi.**

"21. Talaba tegishli fan bo'yicha yakuniy nazorat turi o'tkaziladigan muddatga qadar oraliq nazorat turini topshirgan bo'lishlari shart.

22. Oraliq nazorat turini topshirmagan, shuningdek, ushbu nazorat turi bo'yicha "2" (qoniqarsiz) baho bilan baholangan talaba yakuniy nazorat turiga kiritilmaydi.

Yakuniy nazorat turiga kirmagan yoki kiritilmagan, shuningdek, ushbu nazorat turi bo'yicha "2" (qoniqarsiz) baho bilan baholangan talaba akademik qarzdor hisoblanadi."

Yuqoridagi 21 va 22- bandlar shuni ko'rsatayaptiki, oraliq nazorat faqatgina yakuniy nazoratga qo'yishga asos bo'lib xizmat qiladi va kredit modul tushunchasidan uzoq bo'lib qoladi.

"42. Tegishli o'quv yili yakuni bo'yicha ishchi o'quv rejadagi fanlar bo'yicha "3" (qoniqarli) yoki "4" (yaxshi) yoxud "5" (a'lo) baho bilan baholangan talaba oliy ta'lim muassasasi rektorining (boshlig'ining, filial direktorining) buyrug'iga asosan keyingi kursga o'tkaziladi."

Ya'ni nazorat turlarida o'tkazilgan baholash kredit-modul tizimi ahamiyatini yo'qotdi. Ya'ni imtihonga alohida baho va kredit, amaliy, seminar, laboratoriya mashg'ulotlariga alohida baho va kredit ajratilishi kerak (2-3-jadval). Baho va baholashni barcha OTM larda bir xil qilib, hamma tushunadigan qilish zarur.

Yuqoridagi nizomga asosan, Oliy ta'lim muassasalarining ishchi o'quv dasturlari (sillabus) da fandani olingan bilimlarni quyidagicha baholanadi. o'rtacha baho 4,46 dan – 5,00 bo'lsa, "5" baho;

o'rtacha baho 3,46 dan – 4,45 bo'lsa, "4" baho;

o'rtacha baho 3,00 dan – 3,45 bo'lsa, "3" baho;

o'rtacha baho 3,00 dan past bo'lsa, "2" baho deb hisoblanadi.

Mazkur baholashda nimalar kuzatiladi: bahoni yaxlitlash, baholash jarayonini mantiqan ahamiyatini yo'qotadi, ya'ni verguldan keying son ulishini yaxlitlash baholashning 10 qadamiga orqaga yoki oldiga qaytarishga to'g'ri keladi va baho mantiqan haqiqatdan uzoq bo'lib qoladi. Yakuniy baholash oxirgi imtihon bahosiga bog'liq bo'lib qoladi va uni soxtalashtirish oson kechadi.

Bugungi mustaqil ta'limning oldingi mustaqil ta'limdan farqi shundaki, talabaga o'tilgan mavzulardan ayrim vazifa va tushunchalarni mustaqil o'rganish topshirig'i berilmaydi. Kredit-modul tizimida fan bo'limlarining 60 foiz oquv yuklamasini talaba mustaqil o'qib o'rganishi zarur, ya'ni bu auditoriyada o'tilmagan yangi tushunchalarni mustaqil o'rganishini anglatib, uni baholab krediti hisoblanadi va fan bo'yicha talaba yig'gan summa krediti topiladi.

Modomiki, talabalarining o'quv faoliyatini kredit modul tizimiga moslab o'qitar ekanmiz, baholash tizimini izchil yo'lga qo'ymasak, O'zbekistonda ta'lim jarayonini oldinga siljitishimiz qiyin bo'ladi.

Fanlardan o'tkaziladigan nazorat savollari talabani o'zi mustaqil o'qigan mavzulari (60%) hamda o'qituvchi tomonidan o'tilgan (40%) mavzularni aks ettiradi va har bir bulimni baholanishini qat'iy yo'lga qo'yish, shu asosida talabani kreditini hisoblash zarur.

Oliy ta'lim muassasalarida mustaqil ta'lim jarayoni, talabalar bilimini baholash va mustaqil ta'limni baholash kabi tushunchalarda nomutanosibliklar yuzaga kelgan. OTMlarda talabani bilimini baholashda ON (oraliq nazorat) va YN (yakuniy nazorat) joriy etilgan, endi bunga qushimcha mustaqil talimni baholash tushunchasi kiritilib baholashga harakat qilinmoqda bu masalani echimi emas va bu bilan ahvolni unglab bulmaydi.

2000-2016 yillarda barcha OTM larda talabani bilimini baholashda reyting tizimi yo'lga qo'yilgan edi. Aksariyat o'qituvchilar talabani bilimini baholashda talabaga o'tish ball atrofida

baho qo'yardi. Masalan, talabani bahosi 3 bo'lgan taqdirda o'tish bali 55-56 ball atrofida qo'yilgan. Bu talaba 4 bahoga yaqin turibdi degan tushuncha o'qituvchilarda deyarli yoq edi. Bunday jarayon xorijiy OTM larda ham kuzatilgan, shuning uchun talabani bilingi "A" dan "F" gacha ko'rsatkichlarda aniq dastur baho shkalasining o'rtachasini qo'yilgan. Butun son nisbatdagi baholashni to'g'ri amalga oshira olmagan o'qituvchilarga kasr qiymatdagi baho (4,46 va 3,45 va hakoza) qo'yishni talab qilish haqiqatdan uzoq.

Laboratoriya, amaliy (seminar) darslariga keladigan bo'lsak, ushbu mashg'ulotlar 100% o'qituvchi va laborant nazoratida o'tadigan jarayon. Bu darslarda o'qituvchi tomonidan fanining ko'nikma, malakalari baholanib kreditini hisoblashni q'atib yo'lga qo'yish zarur. Talabani nazorat qilsa u nazoratga tegishli javob reaksiya qiladi, bunga misol sifatida OTM hemis tizimida davomatning yuritilishi talabalarni faqat dars mashg'ulotlariga qatnashishga undayapti. Masalaning ikkinchi tomoni bor, oliy ta'lim tizimida talabani laboratoriya, amaliy, seminar mashg'ulotlari jarayonida faolligi, baholash mezonlari bo'yicha, fanlardan nazoratlarning natijalari umumiy o'zlashtirishiga ta'sir qilmaydi, yani bilim olishga va o'qib o'rganishga ishtiyoqini pasaytirmoqda. Qatib choralar ko'rilmasa ta'lim muassasalaridagi o'quv-tarbiya jarayoni tom ma'noda talabani semestrda semestrga o'tkazish, kontrakt pullarni yig'ish va uni taqsimlashdan iborat bo'lib qoladi.

O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarida yagona baholash tizimiga o'tish shart (1-jadval). Ta'lim oluvchi bog'chadan boshlab baholash mezonlariga ko'nikishi va bilishi zarur.

1-jadval

Oliy ta'lim tizimida talabalar bilimini baholashning mezonlari

Baho I uslub	Baho II uslub (O'zb) ²	Baho III uslub	bahoning 100 ballik tizimidagi o'rtacha ko'rsatkichi (kredit hisoblash uchun) (O'zb)	Kredit ko'rsatkich (ECTS x ω), (ω=ball/100) (Σ xosilaviy ko'rsatkich - AKT dasturi asosida) (O'zb)
"A"	5	+5	100	Yuqori a'lo
"B"	-5	5	90	A'lo
"C"	4	+4	85	Yuqori yaxshi
"D"	-4	4	70	Yaxshi
"E"	3	3	55	Qoniqarli
"F"	2	2	40	Qoniqarsiz
"G"	1	1	20	Yiqildi (fanni kontrakt asosida qayta o'qiydi)

Manbaa: muallif tomonidan jamlangan ma'lumotlar asosida tuzilgan.

Ushbu baholash mezonlari xohlagan turidagi nazoratlar uchun to'g'ri keladi. Birinchi va uchinchi uslubdagi baholash Amerika va Yevropa mamlakatlarida bilim oluvchining bahosi.

Ikkinchi uslubda taklif qilinayotgan baholash biz uchun yaqin tarixda keng qo'llanilgan baholash mezonlari hisoblanadi. Yani har doim o'qituvchi va talabgor besh va to'rt bahoga tortishganda bahoning yetishmagan qismini minus ishorali ko'rsatkichi sifatida tushuntirgan. Lekin buni amalda rasmiy qaydnomalarda qo'llay olmagan. Bugungi modul-kredit tizimi va bu tizimda joriy qilingan baholash me'yorlari mazkur yo'l bilan talabani bilingi va ko'nikmalarini yanada aniqroq baholash imkoniyatini beradi. Shu bilan birga bu baholash jarayonini jahon standartlariga muvofiqlashtirishga xizmat qiladi. Baholash ko'rsatkichini standartlashtirish idorasidan ro'yhatdan o'tkazib talimning barcha bo'g'inlariga tadbiq qilishga idoralararo taklif berish zarur. Baho bilan kreditni bir-biriga aralashtirmaslik zarur.

2-jadval

Ma'ruza va amaliy (seminar) mashg'ulotlari mavjud 150 soatli fandan ta'lim jarayonini tashkil qilish yo'riqnomasi

No	Mashg'ulot	Auditoriya	Mustaqil	Jami soat	Ajratilgan kredit
1	Maruza	30	45	75	2,5
2	Amaliy (Seminar)	30	45	75	2,5
Jami		60	90	150	5

Kredit fanning yuklamasi (hajmi)ni ko'rsatadi, baho esa individual talaba mazkur yuklamani qay darajada o'zlashtirgani to'g'risida ma'lumot beradi. Shuning uchun kredit professor-o'qituvchilar

² O'zb – O'zbekistonda amalda qo'llash taklif qilinayotgan mezonlar.

va talabalar uchun umumiy ma'lumot hisoblanib, uni AKT dasturlari asosida hisob-kitob qilib topiladi. Ayrim xorijiy OTM larda baholashning baho va kredit mezonlari mavjud, kredit bilan baholash masalaning teskari yechimi hisoblanadi, shuning uchun jahonda andoza sifatida to'g'ri yechimni taklif qilish maqsadga muvofik.

3-jadval

Faqat ma'ruza va laboratoriya mashg'ulotlari mavjud 150 soatli fandan ta'lim jarayonini tashkil qilish
yo'riqnomasi

№	Mashg'ulot	Auditoriya	Mustaqil	Jami soat	Ajratilga kredit
1	Ma'ruza	30	45	75	2,5
2.1	Laboratoriya	30	-	30	1
2.2	Amaliy (Mustaqil)	-	45	45	1,5
Jami:		60	90	150	5

Talim jarayonida- mustaqil talimni ahlohida bo'lim sifatida qarash emas, balki fanning mavjud bo'limlari tarkibiga kiritish va baholash zarur. Fan ma'ruza, amaliy (seminar) bo'lganda 2-jadval asosida, faqat ma'ruza va laboratoriya mashg'ulotlari mavjud fanlardan 3-jadval asosida mustaqil talim yuklamasi, kredit qiymati taqsimoti amalga oshiriladi. Yuqoridagi takliflar tadbqiq qilinsa fan mashg'ulotlari bo'limlarida mustaqil ta'lim jarayonida olingan bilimlar o'qituvchilar tomonidan to'g'ri baholanib kreditlar tegishlicha hisoblab topiladi, natijada bu turli chalkashliklar oldini oladi. Talabani o'zlashtirishi faqat yakuniy bahoga bog'liq bo'lmasdan, fanning barcha bo'limlariga kredit ajratilib, fan yoki modulning umumiy krediti sifatida yig'ilishi lozim. Undan tashqari dunyo hamjamiyati oldida kredit-modul tizimga o'tgan ta'lim tizimi katta tanqidlardan holi bo'ladi. Shuning uchun "OTMlarida talabalar bilimni baholash mezonni va kredit modul reytingni hisoblash nizom" ni ishlab chiqish va zudlik bilan tadbqiq qilish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasining Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5349-son Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2018-yil 9-avgustdagi 19-2018-son buyrug'i ilovasida keltirilgan
3. Raxmanova M.Q. Oliy ta'lim muassasalari talabalarida ijtimoiy faollikni rivojlantirish. Monografiya // «Bookmany print» nashriyoti, 2022, - 106 b.
4. Rakhmanova M. Q. Features of Development of Social Competence of Students // Procedia of Philosophical and Pedagogical Sciences ISSN 2795-546X2021 Journal Impact Faktor:8.2, 2023, - 130-137 b

UDC 37.088

THE ROLE OF EDUCATIONAL MANAGEMENT IN TEACHING ENGLISH

*B.Isakulova, teacher, Tashkent Institute of Irrigation and Agricultural Mechanization Engineers
National Research University, Tashkent*

Annotatsiya. O'qituvchilar o'quv jarayonida asosiy shaxslardir. Ular talabalarining kerakli natijaga erishishdagi yutuqlari yoki kamchiliklariga asosiy ta'sir ko'rsatadi. O'qituvchilar ta'lim amaliyotida juda muhim rol o'ynaydi, chunki ular ta'lim faoliyatining asosiy elementlaridan biri bo'lgan o'quv jarayonini amalga oshiradilar. Bundan tashqari, o'qituvchilar o'z vazifalarini bajarish uchun o'quvchilar o'quv jarayonida muvaffaqiyat qozonishlari va o'quv maqsadlariga erishishlari uchun qulay sinf muhitini yaratish strategiyalari va usullariga muhtoj.

Kalit so'zlar: tahlil, sinfni boshqarish, ingliz tilini o'qitish.

Аннотация. Преподаватели являются ключевыми фигурами в процессе обучения. Они оказывают фундаментальное влияние на успехи или недостатки своих учеников в достижении желаемого результата. Учителя играют очень важную роль в образовательной практике, потому что они осуществляют процесс обучения, который является одним из основных элементов образовательной деятельности. Кроме того, чтобы выполнять свои функции, учителям также необходимы стратегии и методы для создания благоприятной обстановки в классе, чтобы учащиеся были успешны в процессе обучения и достигали целей обучения.

Ключевые слова: Анализ, Управление классом, Преподавание английского языка.